O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI IZBOSKAN TUMANI HOKIMINING

QARORI

Izboskan tuman, Naqshband ko’chasi, 19-uy, tel:74-312-25-15

2023 - yil 26 - iyul 121-1-22-Q/23 Izboskan tumani hokimligi

Tuman madaniyat va turizm bo‘limi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvarda qabul qilingan “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonining 5-bandida berilgan topshiriqlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirining 2023 yil 23 martdagi 98-son, Andijon viloyati madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig‘ining 2023 yil 30 martdagi 12-sonli hamda 15 maydagi 24-sonli buyrug‘lari ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, tuman madaniyat bo‘limining 2023 yil 22 may kungi 29-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25- moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvardagi PF-14-son Farmoni 5-bandida berilgan topshiriqlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirining 2023 yil 23 martdagi 98-son, Andijon viloyati madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig‘ining 2023 yil 30 martdagi 12-sonli hamda 15 maydagi 24-sonli buyrug‘lari, shuningdek, tuman madaniyat bo‘limining 2023 yil 22 may kungi 29-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvardagi PF-14-son Farmonining 5-bandida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida 2023 yil 1 may kunidan Izboskan tumani madaniyat bo‘limi tugatilib, uning negizida Izboskan tumani madaniyat va turizm bo‘limi tashkil etilsin.

3. Tuman madaniyat va turizm bo‘limining namunaviy Nizomi 1-ilovaga

asosan;

Tumanda faoliyat yuritayotgan madaniyat markazlarining yangi nomlari 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Tuman madaniyat va turizm bo‘limiga:

Tuman madaniyat va turizm bo‘limini Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

Tasdiqlangan Nizom asosida kadrlar, ijro intizomi, moliya-xo‘jalik va buxgalteriya faoliyatiga oid barcha ishlarning to‘liq faoliyatini yuritish;

Tashkilotning qayta tashkil etilganligini inobatga olgan holda tashkilotning muhr va shtamplarini o‘zgartirish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Ismoilov**

Izboskan tuman hokimining
2023-yil 26-iyuldagi
121-1-22-Q/23-son qaroriga
1-ilova

1-bob. Umumiy qoidalar.

1.Mazkur Nizom hududiy madaniyat va turizm tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda - tashkilot) ning maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalarini, huquqlari va javobgarligini, faoliyatini tashkil etish hamda hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlari funksional vazifalari va mas’uliyatini belgilaydi.

2. Tashkilot madaniy faoliyat, turizm, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari, kinematografiya sohasidagi davlat siyosatini hududda amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan, shuningdek, tasviriy va amaliy san’at, dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, akademik badiiy ta’limning izchilligini ta’minlash bilan bog’liq vazifalarni hal etishga vakolatli organ hisoblanadi.

3. Tashkilot O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi (keyingi o‘rinlarda - vazirlik) ga bo‘ysunadi.

4. Tashkilot o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi hay’ati majlisi qarorlariga, buyruqlari va topshiriqlariga, shuningdek, ushbu Nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

5. Tashkilot o‘z faoliyatini davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Tashkilotning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari tizimdagi tashkilot, korxona va muassasalar hamda ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, hodimlari tomonidan bajarilishi majburiydir.

7. Tuman madaniyat va turizm bo‘limi, tizimdagi idoraviy mansub tashkilotlar yuridik shaxslar hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhr va blankalarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligida shaxsiy g‘azna hisobvaraqalariga, xorijiy valyutadagi shaxsiy g‘azna hisobvaraqalariga ega bo‘ladilar.

8. Tashkilotning rasmiy nomi:

a) davlat tilida: Andijon viloyati Izboskan tuman madaniyat va turizm bo‘limi.

Qisqartirilgan nomi: Izboskan tuman madaniyat va turizm bo‘limi.

b) rus tilida:

to‘liq nomi: Отдел культуры и туризма Избасканского района Андижанской области.

qisqartirilgan nomi: Избасканский районный отдел культуры и туризма.

d) ingiliz tilida:

to‘liq nomi: - Department of culture and tourism of Izboskan district of Andijan region.

qisqartirilgan nomi: Izboskan District of Culture and Tourism.

9. Tashkilot joylashgan joy (pochta manzili): O‘zbekiston Respublikasi Andijon viloyati Izboskan tumani Poytug‘ shahri Milliy tiklanish ko‘chasi 46-uy.

2-bob. Tashkilot tuzilmasi.

10. Tashkilot tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

Tashkilot apparati;

tuman madaniyat va turizm bo‘limi, ko‘zi ojizlar kutubxonasi filiali, madaniyat markazlari, ixtisoslashtirilgan san’at hamda bolalar musiqa va san’at maktablari, ta’lim muassasalari, ixtisoslashtirirgan san’at maktabi.

3-bob. Tashkilot va uning hududiy bo‘linmalarining vazifalariva funksiyalari

1. Tashkilotning asosiy vazifarari va funksiyalari.

11 . Quyidagilar Tashkilotning asosiy vazifalari hisoblanadi:

vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta’minlashda ishtirok etish;

Tashkilot, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura hududiy organlari, ichki ishlar va davlat soliq xizmati rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar (keyingi o‘rinlarda - kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar) bilan hamkorlik qilish;

Madaniyat va turizm faoliyati sohasida qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoring olib borish va nazorat qilish;

tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari taoliyatini muvofiqlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

turizmning rivojlanish holati monitoringini olib borish, uni hududda yanada rivojlantirish bo‘yicha har yillik prognozlarni shakllantirish;

turizm turlarini ko‘paytirish, eng avvalo, ichki va ziyorat turizmi, ekologik turizm, etnoturizm, ishbilannonlik turizmi, sport, gastronomik, tibbiy, ta’lim va ilmiy turizmni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

turizm infratuzilmasini shakllantirish, eng avvalo, turizm yo‘nalishlari bo‘ylab mehmonxonalar va kempinglar, umumiy ovqatlanish obyektlari va turizmning boshqa infratuzilmalarini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

madaniyat va turizmni rivojlantirish bo‘yicha milliy va hududiy dasturlar bajarilishini, turizmni rivojlantirish dasturlarining amaldagi ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish;

mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar ishtirokida ichki, kirish va chiqish furizmini kompleks rivojlantirish dasturlari ijrosini ta’minlash;

turizm sohasining turli yo‘nalish va turlari rivojlanish tendensiyalari bo‘yicha chora-tadbirlarga takliflar ishlab chiqish;

hududning turizm salohiyatidan kelib chiqib, turizmning istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflarni vazirlikka kiritish;

turizm faoliyatini rivojlantirishni rnuvofiqlashtirish, hududlarda yangi turizm yo‘nalishlari ochilishini ta’minlash, ularni pasportlashtirish, turizm sohasidagi yagona reestrlarni shakllantirib boorish;

turizm faoliyatini belgilangan tartibda litsenziyalashni nazorat qilish;

hududda vazirliklar, idoralaining hududiy bo‘linmalari hamda boshqa tashkilotlarning madaniyat va turizm sohasidagi ishini muvofiqIashtirish;

hududdagi madaniyat va turizm faxriylari va boshqa mutaxassislarni davlat boshqaruvining boshqa hududiy organlari bilan birgalikda ijtimoiy muhofaza qilish masalalarini hal etish;

hududda madaniyat va turizmni rivojlantirish istiqbollarini belgilash;

mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda madaniyat va turizm sohasini ommalashtirish ishlarini tashkil qilish;

jahon ilmiy-texnik taraqqiyoti yutuqlari, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi umumlashtirilishini hamda bu yutuqlaming hududda joriy qilinishini ta’minlash;

hududa konferensiyalar, ko‘rgazmalar va tadbirlar o‘tkazish;

madaniyat va turizm sohasiga tegishli nodavlat notijorat tashkilotlari taoliyati rivojlanishiga yordam berish;

kadrlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik, yuksak ma’naviyat va professionalizm ruhida tayyorlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

hududda aholining o‘z jismoniy, umumta’lim va madaniy darajasini oshirishga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish ishlarini olib borish;

xalqaro aloqalarni amalga oshirish va rivojlantirish, hanrkorlik bo‘yicha xalqaro loyihalarni ishlab chiqishda ishtirok etish, sohaga xorijiy investitsiyalar hamda grantlarni jalb qilishda qatnashish;

tegishli hududda madaniyat va turizmni rivojlantirish to‘g‘risidagi axborotni to‘plash va tahlil qilishni amalga oshirish va uni vazirlikka, mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdim etish;

tegishli hududda turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan qisqa, o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan yaxlit konsepsiya amalga oshirilishini ta’minlash;

turizm resurslarini saqlash va rivojlantirish yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilish;

tegishli hududda turizm faoliyati rivojlanilishini ta’minlash, yangi turizm yo‘nalishlarini tashkil etishga ko‘maklashish;

madaniyat va turizm sohasi subyektlariga ularning faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq rnasalalarda metodik va maslahat yordamini ko‘rsatish;

tegishli hududda harakatlanish vaqtida turistlar va ekskursantlarning turistik resurslarga moneliksiz kirishini ta’minlashga ko‘maklashish;

turizm salohiyatini rivojlantirish, turizmni rivojlantirishga to‘sqinlik

qilayotgan g‘ovlarni bartaraf etish, shuningdek, turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar ishrab chiqish;

madaniyat va turizm sohalarida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bo‘yicha belgilangan tadbirlarda hamda hududning ta’lim muassasalarini yuqori malakali kadrlar va boshqa mutaxassislar bilan ta’minlashda ishtirok etish;

hududda madaniyat va turizm sohasidagi dasturlarni tashkil qilish, ommaviy adabiyotlarni chop etishga hamda ushbu sohalarda mavjud video va kino materiallar ishlab chiqilishiga yordam ko‘rsatish va ishtirok etish;

xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, moliyaviy institutlarning grantlari, kreditlari va honiylik xayriyalarini jalb etish choralarini ko‘rish;

tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlarida, davlat madaniyat va turizm tashkilotlarida ichki auditni rashkil etish hamda amalga oshirish;

hududlarda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish bo‘yicha amaliy choralar qabul qilish;

davlat madaniyat va turizm tashkilotlarida zamonaviy xavfsizlikni ta’minlash vositalari va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish;

davlat madaniyat va turizm tashkilotlarini infratuzilmasini rivojlantirish masalalari borasida organlari reytingini tuzishda ko‘maklashish;

davlat madaniyat va turizm tashkilotlari xodimlari kasbiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan turli xil ishlarga jalb qilinishiga qat’iyan yo‘l qo‘yilmasligini ta’minlash.

12. Tashkilotga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Tashkilot va uning rahbariyati tashkiliy va axborot-tahliliy jihatdan faoliyatini ta’minlaydi:

tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, vazirlikning buyruqlari bajarilishi ustidan muntazam nazorat qilinishini ta’minlaydi;

tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari tomonidan kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o‘z vaqtida qayta ishlanishini, ularning iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va korruppsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilishini tashkil etadi;

tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari faoliyatiga rahbarlik qiladi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

mahalliy miqyosdagi byudjetdan moliyalashtiriladigan idoraviy mansub tashkilotlar xarajatlarini moliyalashtirishni, buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etadi;

idoraviy mansub tashkilotlarni moddiy-texnik jihatdan ta’minlashni tashkil etadi;

idoraviy mansub tashkilotlarning binolari va inshootlarini joriy ta’mirlash ishlari monitoringini olib boradi va muvofiqlashtiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etadi;

vakolatiga tegishli tashkiliy, kadrlar, moliya, ishlab chiqarish-xo‘jalik masalalari va boshqa masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

2. Tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limrarining vazifalari va funksiyalari.

13. Quyidagilar tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Tashkilotga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta’minlashda ishtirok etish;

kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan davlat madaniyat va turizm tashkilotlari faoliyatini tashkil etish sohasida o‘zaro hamkorlik qilish;

davlat madaniyat va tiirizm tashkilotlarida madaniy va turizm faoliyati sohasidagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi monitoringini olib borish va nazorat qilish;

davlat madaniyat va turizm tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

14. Tuman (shahar) madaniyat va turizrn bo‘limlari ularga yuklangan asosiy vazifalarga rnuvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari va ularning rahbariyatini tashkiliy va axborot-tahlil jihatidan ta’minlaydi;

idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va famoyishlari, Hukurnat qarorlari, farmoyishlari, vazirlik va hududiy madaniyat va turizm organining buyruqlari bajarilishini ta’minlaydi;

tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari tomonidan tumanlar (shaharlar) hokimliklariga kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o‘z vaqtida qayta ishlanishini, ularning iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilishini tashkil etadi;

tuman (shahar) darajasidagi byudjetdan moliyalashtiriladigan davlat madaniyat va turizm tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirishni, ularda buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etadi;

madaniyat va turizm tashkilotlarida davlat talablari bajarilishi monitoringini olib boradi;

davlat madaniyat va turizm tashkilotlarini moddiy-texnik ta’minlashni tashkil etadi;

davlat madaniyat va turizm tashkilotlarining binolari va inshootlaridan foydalanish ishlari monitoringini olib boradi va muvofiqlashtiradi;

jismoniy va yuridik shaxslaming murojaatlari bilan ishlashni tashkil etadi;

tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari vakolatiga tegishli bo‘lgan tashkiliy, kadrlar, moliya, ishlab chiqarish-xo‘jalik masalalari va boshqa masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

4-bob. Tashkilot va uning hududiy madaniyat va turizm organlarining huquqlari hamda javobgarligi.

1. Tashkilotning huquqlari va javobgarligi.

15. Hududiy madaniyat va turizm tashkilotlari o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun:

ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari hududiy madaniyat va turizm organlaridan o‘z vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

madaniyat va turizm sohasining eng muhim muammolarini ishlab chiqish va ko‘rib chiqish bo‘yicha hududiy darajada idoralararo komissiyalar va kengashlar tuzish;

vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalarining ko‘rib chiqishi uchun takliflar kiritish huquqiga ega.

Tashkilot qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

16. Tashkilot:

vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;

vazirlikning hududiy organlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlash va vazirlikka kiritilayotgan hujjatlar loyihalari va takliflar, shuningdek, vazirlikning hududiy organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning amalga oshirilishi sifati, pirovard natijalari va oqibatlari;

tumanlarda (shaharlarda) aniqlangan muammolarni har tomonlama va chuqur tahlil qilish hamda umumlashtirish asosida madaniyat sohasini rivojlantirishga doir takliflarni tayyorlash;

madaniyat va turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning hududda samarali amalga oshirilishi, muammoli masalalar hal etilishi yuzasidan javob beradi.

2. Tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlarining huquqlari va javobgarligi.

17. Tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari ularga yurklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun, ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari tuman (shahar) bo‘linmalaridan, madaniyat va turizm tashkilotlaridan o‘z vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan axborotni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

davlat dasturlarini va investitsiya dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha davlat madaniyat tashkilotlari faoliyatini o‘rganish;

davlat madaniyat va turizm tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga rahbarlik qilish;

o‘z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflami ko‘rib chiqish uchun Tashkilot, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga kiritish huquqiga ega.

Tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

18. Tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari:

tuman (shahar) madaniyat va turrzm bo‘limlariga yuklangan vazifalar va funksiyalar sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;

Tashkilotga kiritiladigan hujjatlar loyihalari va takliflar, shuningdek, tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘lirnlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning sifati, pirovard natijalari va oqibatlari;

madaniyat va turizm sohasida dolzarb muammolarni, shuningdek, tumanni (shaharni) rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan tizimli kamchiliklarni aniqlash;

madaniyat va turizm masalalariga doir takliflarni tayyorlash va madaniyat va turizm masalalari yuzasidan tumanni (shaharni) rivojlantirish dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlash va kiritish;

tumanlarda (shaharlarda) madaniyat va turizm sohasini rivojlantirish, muammoli masalalarni hal qilish bo‘yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali amalga oshirilishi yuzasidan javob beradi.

5-bob. Tashkilot rahbarining asosiy funksional vazifalari.

19. Quyidagilar tashkilot rahbarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish;

Tashkilot faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlari hamda vazirlik buyruqlari bilan ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

hududiy madaniyat va turizm organlari faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni so‘zsiz ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni

ishlab chiqish va qabul qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini ta’minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoniga, “Ijro.gov.uz ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimini samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 31–maydagi PQ-5132-son qaroriga, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali Ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchilarining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning kotibiyatlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida”gi 2017-yil 1l-apreldagi PQ-2881-son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

vazirlik hay’ati qarorlari, vazir va uning o‘rinbosarlari buyruqlari va topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

madaniyat va turizm sohasiga kiradigan masalalar yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan hamkorlik qilish;

o‘z o‘rinbosarlari vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, hududiy madaniyat va turizm organlarining boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini belgilash, vazirlik hududiy madaniyat va turizm organlari faoliyatining alohida uchastkalariga rahbarlik qilish uchun o‘z o‘rinbosarlari va boshqa-mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligi darajasini belgilash;

Tashkilot faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, vazirlikning hududiy rnadaniyat va turizm organlari va o‘z o‘rinbosarlarining har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlash;

vazirlik hududiy madaniyat va tirizm organlarida kadrlarni tanlash va joy joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar

yaratish, hududiy madaniyat va turizm organlari kadrlar zaxirasini shakllantirish;

vazir nomenklaturasiga kiradigan bo‘sh lavozimlarga taklif etilgan kadrlarning, shuningdek, hududiy madaniyat va turizm organlanga ishga qabul qilinayotgan boshqa kadrlarning professional, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta‘minlash;

hududiy madaniyat va turizm organlari xodimlarini, o‘z o‘rinbosarlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, shu juinladan, ular egallab turgan lavozimda qolishi maqsadga muvofiqligiga doir masalalarni ko‘rib chiqish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha muntazam chora-tadbirlar ko‘rish;

hududiy madaniyat va turizm organlari xodimlari tomonidan vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minlash;

huquqni qo‘llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali hududiy madaniyat va turizm organlari tizimida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

prognoz ko‘rsatkichlarning bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda hududiy madaniyat va turizm organlari tomonidan ushbu ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishilishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish bo‘yicha takliflarni vazirning mutasaddilik qiladigan o‘rinbosarlariga kiritish;

hududiy madaniyat va turizm organlari xodimlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish;

hududiy madaniyat va turizm organlari faoliyatiga oid masalalar bo‘yicha qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek, madaniyat va turizm sohasida davlat xrzmatlari samaradorligi, sifati va ulardan erkin foydalanishni oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda ularni ko‘rib chiqish uchun vazirlik rahbariyatiga kiritish;

vazirlikning tuman (shahar) bo‘linmalari va hududiy madaniyat va turizm

organlari tarkibiga kiradigan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilangan muddatlarda va tartibda aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Vertual qabulxonasidan tushgan murojaatlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqish;

hududiy madaniyat va turizm organlari xodimlari lavozim maoshiga rnukofotlar, ustamalar to‘lash, ularga moddiy yordam berish, ularni mukofotlash, rag‘batlantirish va ularga intizomiy chora qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilish, ularni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to‘g‘risidagi takliflarni vazirlikka kiritish;

davlat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning himoya qilinishini ta’minlash.

20. Quyidagilar tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa nonnativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish;

tuman (shahar) bo‘linmasiga rahbarlik qilish faoliyatning ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha xodimlar o‘rtasida funksional vazifalarni taqsimlash va ulaming javobgarligi darajasini belgilash;

davlat madaniyat va turizm tashkilotlari faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish, ushbu bo'linmalariga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkarnasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-

tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoniga, “Ijro.gov.uz ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 3l-maydagi PQ-5132-son qaroriga, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shurningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchilarining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning kotibiyatlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida”gi 2017 - yil 11-apreldagi PQ-2881–son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

vazirlik hay’ati qarorlari, vazir va uning o‘rinbosarlari, hududiy madaniyat va turizm organi rahbarlarining buyruqlari va topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

madaniyat va turizm sohasiga kiradigan masalalar yuzasidan mahalliy davlat, hokimiyati organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan hamkorlik qilish;

tuman (shahar) bo‘linmasida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda hududiy madaniyat va turizm organlari rahbariga, ularning o‘rinbosarlariga takliflar kiritish, ularning professional o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta’minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish, tuman (shahar) bo‘linmasida kadrlar zaxirasini shakllantirish;

xodimlarning odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini, tumanlarda (shaharlarda) tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishini ta’minlash;

huquqni qo‘llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlarida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari xodimlari lavozim maoshiga mukofotlar, ustamalar to‘lash, ularga moddiy yordam berish, ularni mukofotlash,

rag‘batlantirish va ularga intizomiy chora qo‘llash, ularni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to‘g‘risida takliflar kiritish;

davlat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning himoya qilinishini ta’minlash.

6-bob. Tashkilot rahbarlarining javobgarligi.

21. Hududiy madaniyat va turizm organlari rahbarlari:

hududiy madaniyat va turizm organlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

ushbu Nizomning l6-bandida nazarda tutilgan hududiy madaniyat va turizm tashkilotlarining javobgarlik sohalari bo‘yicha;

ushbu Nizomning 19-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

22.Tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlari rahbarlari:

tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

ushbu Nizomning 18-bandida nazarda tutilgan tuman (shahar) madaniyat va turizm bo‘limlarining javobgarlik sohalari bo‘yicha;

ushbu Nizomning 20-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarini sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

7-bob. Tashkilot faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari.

23. Tashkilot faoliyatining samaradorligi va natijadorligi muntazam baholanishi lozim.

24. Tashkilot faoliyati samaradorligi va natijadorligiga berilgan baholar vazir tomonidan tasdiqlanadigan Tashkilot faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi.

25. Tashkilot faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo‘yicha:

Tashkilot rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlikka tortish;

Tashkilot faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko‘riladi.

Tashkilot faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash qonunchilik hujjatlarida belgilanadi.

8-bob. Tashkilotni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish.

26. Tashkilot faoliyatini ta’minlash va moliyalashtirish (shu jumladan, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish) mahalliy byudjet, vazirlikning budjetdan tashqari mablag‘lari, shu jumladan, vaqtincha bo‘sh turgan byudjetdan tashqari mablag‘larni tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan, xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar Tashkilot apparat, hududiy madaniyat va turizm organlari va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirish, moddiy-texnik ta’minlash va xodimlar mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish (ish haqi, mukofot pullari, ustamalar va boshqa pul mukofotlari to‘lash) manbalar hisoblanadi.

27. Tashkilot xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, mukofotlar, qo‘shimcha haqlar, moddiy yordam, ustama va rag‘batlantirish to‘lovlaridan va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlardan iborat. Tashkilot xodimlari lavozim maoshlariga har oyda qo‘shiladigan rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan qo‘shimcha haqlar va ustamalar tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi.

9-bob. Tashkilot rahbarining O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligiga hisobot berishi.

28. Tashkilot rahbari tashkilotning faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vaziriga muntazam ravishda hisobot beradi.

29. Tashkilot rahbari o‘rinbosar, bo‘lim boshliqlari va xodimlar tomonidan ularning vazifalati samarali bajarilishi uchun faoliyati ustidan muntazam ravishda monitoring olib boradi va samaradorligiga xolisona baho beradi.

30. Monitoring va baholash yakunlari bo‘yicha tashkilotning alohida o‘rnak ko‘rsatgan rahbarlari va xodimlari rag‘batlantiriladi yoki yo‘l qo‘yilgan jiddiy kamchiliklar uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo‘lsa javobgarlikka tortiladi.

10-bob. Yakunlovchi qoida.

31. Tashkilotni qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Izboskan tuman hokimining
2023-yil 26-iyuldagi
121-1-22-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Izboskan tumanida faoliyat yuritayotgan madaniyat markazlarining yangi nomlari

RO‘YXATI

№	Madaniyat markazlarining nomi	O‘zgartirilgan nomi va raqami
1	Izboskan tuman markaziy madaniyat markazi	Izboskan tumani 35-son madaniyat markazi
2	“Namuna” madaniyat markazi	36-son “Namuna” madaniyat markazi
3	“Shermatobod” madaniyat markazi	37-son “Qaldirg‘och” madaniyat markazi
4	“Izboskan” madaniyat markazi	38-son “Izboskan” madaniyat markazi